

O'ZBEK INGLIZ TILLARIDA HURMAT KATEGORIYASI.

Kamoldinova Odina

Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyot fakulteti 2-kurs

Annotatsiya: Ushbu maqolada hurmat kategoriyasining ingliz va o'zbek tilida lingvopoetik xususiyatlari muhokama etilgan. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida hurmat kategoriyasini tahlil etishda, ushbu tillarda mavjud, murakkab jarayon hisoblanmish hurmat kategoriyasining mavjud yoki mavjud emasligi, uning o'rni, tarjima hodisasi, shuningdek, muloqot obyekti ekanligini tahlil qilib o'rganish ifodalangan

Kalit so'zlar: hurmat, lingvopoetika, tilshunoslik, fonopoetika, leksopoetika, sintaktik poetika, badiiy nutq, badiiy asar.

Bugungi kunda mamlakatimizni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish konsepsiysi, fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanishga asoslanadi. Shu sababli mustaqillikning dastlabki yillaridayoq respublikamizda fan va ta'lim sohasidagi islohotlarga, yetuk kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Asrlar davomida shakllangan ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarimizga tayangan, bugungi kunda yangi istiqlol mafkurasi bilan oziqlantirilayotgan, shu bilan birga, bizni umumbashariy ulug' ma'naviyat sari yetaklayotgan milliy ongimiz, shuurimiz va dunyoqarashimiz o'zbek nutqi madaniyatini, ona tilimizning amaliy jihatlarini zamon talablariga mos holda o'rganish barchamiz uchun zarurdir. Biron tilning so'z tarkibi hali u tilning to'liq tarkibini belgilab bermaydi. O'zlashgan so'zlar mazkur tilda qurilish manbasi singari aks etadi. Tilda ikki yoki undan ortiq kishilarning afektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashishidan iborat bo'lgan o'zaro ta'siri -muloqotni ifodalaydi. Muloqot odobi muammosini milliy xarakter, millatning o'ziga xos qadriyat, urf-odatlari, va an'analarini hisobga olmasdan turib, o'rganish mumkin emas. Chunki muloqot xulqi millat xarakterining uzviy bir qismi bo'lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqidir. Bunda hurmat kategoriyasining o'z o'rni bor.

J.Lakoffning ta'kidlashicha, muomala jarayonida ayollar yuqori darajadagi empatiya va o'z suhbatdoshiga nisbatan moslashib ketish kabi xislatlar bilan farqlanadi, o'z suhbatdoshining mulohazalarini diqqat bilan tinglab, muloqot jarayonida ustun bo'lishga harakat qilmaydi. Erkaklar esa suhbat chog'ida yana ham jizzakiroq, sharoitni nazorat qilishga intiladilar, o'zaro kelishishga harakat qilishadi, deb biladi. U shuni ham ta'kidlaydiki, ingliz tilida qayd etilgan xususiyatlarga qo'shimcha qilgan holda, ayollar tasdiq so'roq gapga tushuvchi intonasiya qo'llash o'rniga ko'tariluvchi intonasiyadan, semantik jihatdan chuqur ma'noga ega bo'limgan leksika, odatiy ayollar faoliyatini tasvirlaydigan maxsus o'zlashtirma so'zlardan, so'zlayotgan nutqni kuchli his-hayajon



ma'nolarni ifodalovchi til vositalari va modal yuklamalardan keng foydalanishadi. Erkaklar esa undov so'zlar qo'llamasliklari, stilistik bo'yoq darajasi kam va haqorat ma'nosi kelib chiqadigan jargonli leksikani juda ko'p ishlatishlarini ham qo'shib qo'yadi[6]. Muloqot uslubidagi farqlar ayollar va erkaklar orasidagi munosabatlarda paydo bo'ladigan muammolarni aniqlashtirmaydi. Ya'ni, munosabatlarda ruhiy muammolar, ya'ni sevgidagi yoki e'tibordagi omadsizlik, chin dillik, xudbinliklar ba'zan aks etadi. Va ular siyosiy va iqtisodiy tengsizliklarning natijasidir. Ammo aytib o'tilgan xususiyatlar asossiz ifodalanishi ham tez-tez uchrab turadi. Demak, ayol va erkak borliqni turlicha qabul qiladi va baholaydi. Nutqiy muomalaning gender o'zgaruvchanligi tilning turli sathlarida, ya'ni fonetik, leksik, grammatik, semantic sathlarda namoyon bo'ladi. Gender munosabatlar faqatgina kodlangan ko'rinishda ishlatilmay, balki nutq hodisasining mavzular majmui va xususiyatini yuzaga keltiradi.

Biroq bizning kuzatuvlarimiz natijasida quyidagi xulosaga keldik: erkaklar ijtimoiy mavqeい nuqtai nazaridan ayollardan ko'ra balandroq pog'onada ekanligini ko'rsatish o'rniga ayollarga nisbatan hurmati baland, suhbat davomida ayollar o'zini qulay his etish imkonini yaratib berishga intilishlari ma'lum bo'ldi. Shunday qilib, gender munosabatlar jamiyatdan ahamiyatga molik bo'lgan darajada o'zgarib borib, muayyan universal qolipga ega emasligi ma'lum bo'ldi. Xulosa qilib aytganda, gender tilshunosligida ayollar va erkaklar nutqining farqlari bo'yicha talaygina ma'lumotlar yig'ilgan bo'lib, ko'pgina tilshunoslari ishlarida ayollar erkaklarga qaraganda e'tiborga molik bo'lgan til shakllarini qo'llashi va ularning nutqi o'zgaruvchanligi (variativ) tadqiq qilingan. Erkaklarning nutqi til o'zgarishlariga og'zaki nutqni jalb qila turib faollik bilan ko'nikma hosil qiladi

Shuningdek, "Kelingizlar" so'zidagi -ingiz – hurmatni bildiradi, -lar esa ko'plikni ifodalaydi. Hozirgi o'zbek tilida siz aslida tinglovchi ko'pligidir. Biroq yoshi, martabasi ulug', hurmati bor kishilarga ham siz deb murojaat qilinadi. Tilimizda "sizlab gapir", "senlab gapir" degan iboralar ham bor. bo'lganda salbiy ohangda humatsizlikni, hatto mensimay so'zlashni ham bildiradi. Yuqoridagi misolda dadamlar, oyimlar deganda ko'plikni emas, ularga bo'lgan hurmatni ifodalangan. Nutq jarayonida hurmat shu qadar kuchliki, hatto hurmatga sazovor kishining ish-harakati va holatiga, unga tegishli narsalarga ham hurmatni bildiruvchi qo'shimcha qo'shib so'zlanadi. Masalan: Dadajon, ovqatingizni yeb oling gapini olaylik. Ovqat so'zi otaga tegishli, shuning uchun unga hurmatni bildiruvchi - ingiz qo'shimchasini qo'shib ovqatingiz deyiladi. Keyingi yeb oling- fe'li ham otaga qarashli, shuning uchun u ham hurmat shaklida. Ko'plik shakli hurmatni ifoda etganligini Mahmud Koshg'ariy ham ta'kidlagan edi. Uning yozishicha, turklar sen so'zini kichiklarga, xizmatchilarga



hamda so`zlovchidan daraja, martaba, yoshda quyi bo`lgan kishilarga nisbatan qo`llaganlar. O`zlaridan yuqori hurmatli kishilarni siz deganlar. O`g`uzlar esa, aksincha, kattalarga sen, kichiklarga siz deb qo`llaydilar. Ko`plikda ham shuni ishlatganlar Ingliz tilida hurmat quyidagicha ifodalanadi: Ism bilan murojaat qilayotganda, inglizlarning familiyasini tegishli nom bilan chaqirish hurmatni ifodalaydi. Agar ismini bilmasa, janob yoki xonim deb murojaat etish hurmat m`nosini ifodalaydi. Bundan tashqari ingliz xalqi madaniyatida hurmat qadrlanadigan muhim tushuncha bo`lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, o`zbek xalqi so`zlashuv xulqi, muomala madaniyati bilan ajralib turadi. Yuqorida ko`rib chiqqan asar tahlillaridan ko`rinib turibdiki, o`zbek xalqi ham kattalarga hurmat va kichiklarga izzatga juda katta ahamiyat berishadi. Ingliz xalq madaniyatida hurmat etiket qoidalari sifatida amalga oshiriladi. Hurmat kategoriyasi qonun-qoida sifatida qo`llaniladi. Hurmat kategoriyasi fikrni lo`nda, aniq va obrazli qilib ifodalashda nutqimiz uchun juda ham zarur bo`lgan vositalardan biri hisoblanadi. Binobarin, xalqning ko`p asrlik ijtimoiy tajribasida ming martalab tasdiqlanib kelgan ibratli fikrlar har kun, har soat nutqimizga mazmuniy go`zallik, o`ziga xos jilo baxsh etib kelmoqda. Ulg`ayib kelayotgan yosh avlodni shu ruhda tarbiyalaydi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI: (REFERENCES)

1. Graham J., Haidt J., Koleva S., Motyl M., Iyer R., Wojcik S. Axloqiy asoslari nazariyasi: axloqiy plyuralizmning pragmatik asoslari. 2013.
2. Richardson D. S, Spivey M. J., Edelman S., Neapol A. D. Til fazoviy: aniq va mavhum fe'llarning tasviriy sxemalari uchun eksperimental dalillar.2001.
3. Zulfiyeva Y.-lar affiksining so`z tarkibidagi qo`llanish xususiyatlari// O`zbek tili va adabiyoti. –T.: 1972. 5 –son.
4. Zikrillayev G'.Fe'lning shaxs,son va hurmat kategoriyalari sistemasi.- Toshkent:Fan,1990 -163b.
5. Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk (Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov). T. I-II-III. –T.: Fan, 1960-1963. I. –B. 326.

